

**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi**  
**Jamoatchilik kengashi raisi**



A. Sa’dullayev

2021-yil \_\_\_-mart

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi**  
**Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining**  
**2 -son BAYONI**

2021-yil 1-mart

Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** A.Sa’dullayev – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, Jamoatchilik kengashi raisi

**Ishtirok etganlar:** O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zolari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

**Taklif etilganlar:** “O‘zbekiston milliy kinokomissiyasi” NNT rahbari M.Azizova, “Ijtimoiy media loyihalar markazi” NNT rahbari J.Mirzayev, “O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi” NNT rahbari R.Umarov, “Besh tashabbus loyiha ofisi” NNT rahbari S.Olimov, “O‘zbekiston yosh fermerlari Kengashi” NNT rahbari M.Inoyatov, “Agroinnovatsiya jamg‘armasi jamoat birlashmasi” NNT rahbari Q.Adilov

**Kvorum:** 80 foiz. (Jamoatchilik kengashi 15 nafar a’zolarining 12 nafari). Yig‘ilish qaror qabul qilishga vakolatli.

**KUN TARTIBI:**

1. Jamoatchilik kengashi a’zolarining soni hamda uning shaxsiy tarkibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi to‘g‘risida nizom loyahasini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ajratilgan davlat ijtimoiy buyurtmalarini monitoring qilish tartibi to‘g‘risida nizom loyahasini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

4. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e‘lon qilingan ijtimoiy buyurtmalar tanlovida ishtirok etish bo‘yicha kelgan loyihalarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

---

*(A.Sa’dullayev, D.Kattaxanova, U. Xalbekova, I.Xoldorova, Sh.Saparov, X. Xudoyberdiyev, A.Yunusov, M.Mirsultonov, A.Mirkamilov, R.Meliko‘ziyev, S.Jo‘rayev, A.Muminov, A.Sa’dullayev)*

**Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha** yig'ilish raisi – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, Jamoatchilik kengashi raisi – A.Sa'dullayev so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son Qarori va Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori bilan Agentlik huzurida yoshlar masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda — Jamoatchilik kengashi) tashkil etish yuzasidan belgilangan vazifalar ta'klidladi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, 2020-yil 26-noyabr kuni Agentlik huzurida Agentlikning Markaziy apparati, uning hududiy bo'linmalari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda faol yoshlardan iborat tarkibda Jamoatchilik Kengashi tashkil etilganligini hamda bugungi kunda bir qator Jamoatchilik Kengashi a'zolarining boshqa ishga o'tganliklari hamda o'z hohishlariga ko'ra Kengash a'zolidan chiqarishni so'rab murojaat qilganliklarini ma'lum qilindi.

Shu munosabat bilan, kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Jamoatchilik Kengashining tarkibini 15 nafar qilib belgilash hamda 1-ilovada nazarda tutilgan nomzodlardan iborat tarkibda yangidan shakllantirish masalasini ovozga qo'yildi.

Taklif bir ovozdan ma'qullandi.

Shuningdek, raislik qiluvchi tomonidan Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari vazifasiga O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari D.Kattaxanova, kotibi vazifasiga Yoshlar ishlari agentligi Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i A.Mo'minov nomzodi taklif qilindi.

Mazkur taklif ovozga qo'yildi va Jamoatchilik kengashi a'zolarining barchasi tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

**Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan,** Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i S.Jo'rayev so'zga chiqib, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan bugungi kunga qadar davlat ijtimoiy buyurtmalarini ajratishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 22-fevraldagi 135-son Qarori asosida ajratib kelinganligi ma'lumot o'rnida ta'kidlandi.

Biroq, bugungi kunda davlat ijtimoiy buyurtmalarini ajratishda va loyihalarni ko'rib chiqishda Yoshlar ishlari agentligining alohida tartibini ishlab chiqish zarurati mavjud ekanligi va shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi to'g'risida Nizom" loyihasi ishlab chiqilganligini bildirdi.

Nizom loyihasi Jamoatchilik kengashi a'zolariga tanishtirildi hamda mazkur loyiha yuzasidan qo'shimcha taklif va mulohazalar mavjud bo'lmagan taqdirda, mazkur nizomni ochiq ovoz berish yo'li bilan tasdiqlash yuzasidan taklif kiritildi.



Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan Nizom loyihasi bir ovozdan ma'qullandi.

**Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan,** Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i S.Jo'rayev so'zga chiqib, "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ajratilgan davlat ijtimoiy buyurtmalarini monitoring qilish tartibi to'g'risida nizom" loyihasini Jamoatchilik kengashi a'zolariga tanishtirdi.

Loyiha yuzasidan qo'shimcha taklif va mulohazalar mavjud bo'lmagan taqdirda, mazkur nizomni ochiq ovoz berish yo'li bilan tasdiqlash yuzasidan taklif kiritdi.

Nizom loyihasi bir ovozdan ma'qullandi.

**Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan,** Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i S.Jo'rayev so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4862-son Qarorida Yoshlar ishlari agentligiga yuklatilgan vazifalar to'g'risida Jamoatchilik kengashi a'zolarini xabardor qildi.

Xususan, Mazkur qarorning 6-bandiga muvofiq, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan Yoshlar ishlari agentligiga yuklatilgan vazifalar ijrosi nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun beg'araz asosda ajratilishi belgilangan 1 million AQSh dollari ekvivalentida (10 443,07 mln. so'm) mablag'ning 6 292,17 mln. so'm mablag' qismi Yoshlar ishlari agentligining hisob raqamiga o'tkazib berilganligi ma'lum qilindi.

Agentlik tomonidan "kouching" video materiallar va darsliklar, motivatsion roliklar tayyorlash uchun ijtimoiy buyurtma berilishi to'g'risida Agentlikning rasmiy web-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida hamda nodavlat notijorat tashkilotlarning rasmiy guruhlarida tanlov e'lon qilindi.

Tanlovda ishtirok etish uchun 2020-yil 21-dekabrgacha bo'lgan muddatda 2 ta nodavlat notijorat tashkilot tomonidan 6 ta loyiha kelib tushgan. Mazkur loyihalar Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashining 2020-yil 21-dekabrdagi 1-sonli yig'ilishida umumiy miqdori 2 148 mln. so'm bo'lgan 5 ta loyiha ma'qullangan, 1 ta loyihani moliyalashtirish rad etilgan.

Bundan tashqari, 2021-yil 1-martgacha 14 ta tashkilot tomonidan jami 18 ta loyiha kelib tushgan bo'lib, tanlov shartlariga ko'ra kamchiliklar mavjud bo'lgan 11 ta loyihalarni qaytarish va kamchiliklari sabablarini o'rganish masalasi Jamoatchilik kengashining keyingi yig'ilishida ko'rib chiqish uchun kiritilishi bildirildi (*ma'lumot ilova qilinadi*).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Jamoatchilik Kengashining mazkur yig'ilishi kun tartibida umumiy qiymati 6 mlrd. 400 mln. 200 ming so'm qiymatidagi jami 7 ta loyihalarni ko'rib chiqish taklif etildi.

Taklif Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan ma'qullandi.

Loyihalar:

1. "Yosh kinoijodkorlar Kengashi" NNTning motivatsion videoroliklar tayyorlash loyihasi. Loyiha qiymati 500 mln. so'm (besh yuz million so'm).

2. “O‘zbekiston milliy kinokomissiyasi” NNTning “O‘zbekistonlik” hujjatli filmi tayyorlash loyihasi. Loyiha qiymati 1 800 mln. so‘m (bir milliard sakkiz yuz million so‘m).

3. “Ijtimoiy media loyihalar markazi” NNTning “Bizdan maslahat”, “Men kimman?”, “iTalim”, “Savollar bormi?” motivatsion-kouching videoroliklar tayyorlash loyihasi. Loyiha qiymati 900 mln. so‘m (to‘qqiz yuz million so‘m).

4. “O‘zbekiston yoshlari ummujahon assotsiatsiyasi” NNTning “Vatandosh tajribasi” loyihasi. Loyiha qiymati 450 mln. so‘m (to‘rt yuz ellik million so‘m).

5. “5 tashabbus loyiha ofisi” NNTning “O‘zbekiston uchun 100 g‘oya” loyihasi. Loyiha qiymati 1 805 mln. so‘m (bir milliard sakkiz yuz besh million so‘m).

6. “O‘zbekiston yosh fermerlari Kengashi” NNTning “Fermerlarning 12 yoquti” loyihasi. Loyiha qiymati 659 mln. so‘m (olti yuz ellik to‘qqiz million so‘m).

7. “Agroinnovatsiya jamg‘armasi” jamoat birlashmasining “Agropolis.uz – shahar sharoitida innovatsion agrobiznes” loyihasi. Loyiha qiymati 286,2 mln. so‘m (ikki yuz sakson olti million ikki yuz ming so‘m).

Sanab o‘tilgan loyihalar bo‘yicha ularni taqdim etgan nodavlat-notijorat tashkilotlar rahbarlari tomonidan loyihalarning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida ma‘lumot berildi.

Jamoatchilik kengashi a‘zosi X.Xudoyberdiyev tomonidan loyihalar doirasida tasvirga olinishi rejalashtirilgan videoroliklarning ssenariysi va uni ommaviy axborot vositalarida yoritish (PR-menejment) masalasiga alohida e‘tibor qaratilmaganligi ta‘kidlandi.

Jamoatchilik kengashi a‘zosi U.Xalbekova tomonidan loyihalarning kalendar rejaları mavjud emasligi, kutilayotgan natijalar aniq sanab o‘tilmaganligi, ya‘ni miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari yoritilmaganligi va loyihani amalga oshirishda talabgor tashkilotlarning o‘z ulushi ko‘rsatilmaganligi ma‘lum qilindi.

Jamoatchilik kengashi a‘zosi A.Yunusov tomonidan tayyorlanadigan video materiallarning har biri uchun aniq mavzular bo‘lishi, mavzuni to‘liq va sifatli yoritish uchun davlat organlari bilan bog‘lanish va hamkorlikda ishlash lozimligi yuzasidan fikr bildirildi.

Jamoatchilik kengashi a‘zosi A.Mirkamilov tomonidan loyihalarni ko‘rib chiqishda 1-ilova bilan ko‘rib chiqilgan Nizom talablari asosida amalga oshirish, loyihalarni mukammal shakllantirilishi uchun qo‘shimcha muddat berish hamda tegishli soha ekspertlarini ham Jamoatchilik kengashining navbatdagi yig‘ilishlarga jalb qilish taklifi bildirildi.

Jamoatchilik kengashi a‘zosi U.Xalbekova “Agroinnovatsiya jamg‘armasi” jamoat birlashmasiga nisbatan davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish uchun to‘sqinlik qiluvchi holatlar mavjud ekangiligini, xususan, mazkur jamoat birlashmasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hisobidan grant mablag‘lari ajratilib, bugungi kunda mazkur mablag‘lardan maqsadsiz foydalanilishi ustidan tekshiruv jarayonlari olib borilayotganligini Jamoatchilik kengashiga ma‘lum qildi.



Shu munosabat bilan, “Agroinnovatsiya jamg‘armasi” jamoat birlashmasi tomonidan taqdim etilgan loyihaning ustuvor maqsadi innovatsion qurilmani ishlab chiqish hamda videorolik orqali targ‘ibot qilish asosiy maqsad ekanligi loyiha tashabbuskorining taqdimotida anglashilganligi, Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan ajratilgan mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish holatlari mavjud ekanligini inobatga olib, bu loyihani moliyalashtirishni rad etish taklifi bildirildi.

Taklif Jamoatchilik kengashi a‘zolari tomonidan ma‘qullandi.

Jamoatchilik kengashi a‘zolarining muhokamalaridan so‘ng sanab o‘tilgan loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan loyihalarni yanada takomillashtirish uchun tashabbuskorlarga qo‘shimcha muddat berilishi va keying yig‘ilishda qayta ko‘rib chiqish taklifi bildirildi.

Taklif Jamoatchilik kengashi a‘zolari tomonidan bir ovozdan ma‘qullandi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Jamoatchilik kengashi **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashining tarkibi 15 nafar qilib belgilansin hamda **1-ilovaga** asosan yangi tarkibda shakllantirish taklifi ma‘qullansin.

2. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari vazifasiga D.Kattaxanova, kotibi vazifasiga A.Mo‘minov nomzodi tasdiqlansin.

3. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi to‘g‘risida nizom **2-ilovaga**;

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ajratilgan davlat ijtimoiy buyurtmalarini monitoring qilish tartibi to‘g‘risida nizom **3-ilovaga** asosan ma‘qullansin.

4. **4-ilovaga** asosan, davlat ijtimoiy buyurtma ajratish uchun taqdim qilingan loyihalar qayta takomillashtirish hamda Jamoatchilik kengashining keyingi yig‘ilishida ko‘rib chiqish taklifi ma‘qullansin.

5. “Agroinnovatsiya jamg‘armasi” jamoat birlashmasining “Agropolis.uz – shahar sharoitida innovatsion agrobiznes” loyihasini moliyalashtirish **rad etilsin.**

6. Ushbu yig‘ilish bayoni ijrosini ta‘minlash va nazorat qilish Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Sa‘dullayev zimmasiga yuklatilsin.

Yig‘ilish kotibi



A.Muminov

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi  
Jamoatchilik Kengashi  
TARKIBI**

№	F.I.Sh	Lavozimi
1.	Sa'dullayev Alisher Zafar o'g'li	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, <b>Jamoatchilik kengashi raisi</b>
2.	Kattaxanova Dilnoza Sobir qizi	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari, <b>Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari</b>
3.	Aslonov Abdullo Ubaydulloevich	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi raisi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati
4.	Xalbekova Umida Akramovna	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi direktori o'rinbosari
5.	Sattorov Xayrulla Fayzullaevich	"Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi ijro etuvi direktori
6.	Xoldarova Indira Abdukarimovna	O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari
7.	Saparov Sherzod Baxtiyarovich	Yuksalish umummilliy harakati Dasturlar va hamkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha rais o'rinbosari
8.	Xudoyberdiyev Xushnud G'ayratovich	O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktorining o'rinbosari, huquqshunos, bloger
9.	Yunusov Alisher Bobomuradovich	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti direktori o'rinbosari
10.	Nuriddinov Isomiddin Quvondiqovich	O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi boshqarma boshlig'i
11.	Mirsultonov Miraziz Baxrom o'g'li	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig'i
12.	Mirkamilov Anvarjon Kozimjonovich	Taraqqiyot strategiyasi markazi bosh mutaxassisi
13.	Meliko'ziyev Ravshanbek Isomiddin o'g'li	O'zbekiston Milliy universiteti talabasi, faol yosh
14.	Jo'rayev Sardor A'zamovich	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i
15.	Muminov Abdulaziz Majid o'g'li	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i, <b>Jamoatchilik Kengashi kotibi</b>

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan  
davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi va "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga (keyingi o'rinlarda – fuqarolik jamiyati institutlari) davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi va shartlarini belgilaydi.

3. Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish Agentlik huzuridagi yoshlar masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda – Jamoatchilik kengashi) qarorlari asosida amalga oshiriladi.

4. Davlat ijtimoiy buyurtmasi sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'idan iborat bo'lib, fuqarolik jamiyati institutlariga tanlov asosida beriladi.

**2-bob. Davlat ijtimoiy buyurtmalari berish bo'yicha tanlovlarni tashkil etish  
va loyihalarni taqdim qilish shartlari**

5. Agentlik ijtimoiy sheriklik sohalari doirasida o'z faoliyatining fuqarolik jamiyati institutlari qo'llab-quvvatlashini talab etadigan ustuvor yo'nalishlarini belgilab, ushbu Nizomdagi tartib va shartlar asosida davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish bo'yicha tanlovlarni tashkil etadi.

6. Agentlik tomonidan tanlovlarni e'lon qilish, loyihalarni qabul qilish, umumlashtirish, loyihalarda aniqlangan asosiy kamchiliklar ko'rsatilgan tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlash yuzasidan Agentlikning markaziy apparati Yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – ishchi organ) mas'ul hisoblanadi.

7. Agentlik davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish bo'yicha tanlovlar haqida tanlov boshlanishidan kamida 30 kun oldin (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) 1-ilovaga muvofiq shaklda ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, elektron ommaviy axborot vositalarida hamda Agentlikning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida e'lon beradi.

8. Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish bo'yicha tanlovlarda o'z loyihalarini taqdim etgan bir yoki bir necha fuqarolik jamiyati institutlari qo'shma guruh tuzgan holda ishtirok etish huquqiga ega.



Bunda, taqdim etilgan ariza va loyihada har bir fuqarolik jamiyati institutlarining funksiyalari, bir-biriga nisbatan javobgarligi va loyihani amalga oshirishga qo‘shayotgan hissalarini aniqlashtirilishi lozim.

9. Tanlovda ishtirok etishga talabgor fuqarolik jamiyati institutlari (bundan buyon matnda talabgor tashkilot deb yuritiladi), tanlov haqidagi e‘londa ko‘rsatilgan muddat ichida tegishli tartibda Agentlikka quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

– tanlovga hujjatlar taqdim etilayotganligi to‘g‘risida yo‘llanma murojaat (kuzatuv) xati;

– ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan shaklda davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasida amalga oshiriladigan loyihani o‘z ichiga olgan talabgorning ariza (talabnoma)si va unga ilova qilinadigan hujjatlar;

– davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishning batafsil tasnifi;

– qarzdorlik mavjud emasligi haqida davlat soliq inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotnoma;

– oxirgi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan ro‘yxatga olingan, talabgor tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ustav (nizom)ning nusxasi;

– talabgor tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda uning hududiy boshqarmalarida ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi (ommaviy axborot vositalari uchun);

– talabgor tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan tegishli litsenziyaning nusxasi (litsenziyalanadigan faoliyat turi bilan shug‘ullanish talab etilgan hollarda).

Talabgor tashkilot ushbu bandning birinchi qismida ko‘rsatib o‘tilganlardan tashqari loyihani amalga oshirishdan manfaatdor davlat va nodavlat tashkilotlarining tavsiyanomalari, qo‘llab-quvvatlash xatlarini ham taqdim etishi mumkin.

10. Tanlovda ishtirok etish uchun tasdiqlangan hamda muxrlangan hujjatlar to‘plamlari talabgor tashkilot tomonidan aloqa pochta orqali yoki elektron ko‘rinishda berilishi mumkin.

11. Talabgor tashkilot mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan shakldagi ariza (talabnoma)da tegishli ma‘lumot, ko‘rsatkich va raqamlarni aniq ko‘rsatishi shart.

12. Quyidagi talabgor tashkilotlarga tanlovda ishtirok etishga yo‘l qo‘yilmaydi:

– tugatilgan yoki tugatish jarayonida turgan;

– tanlovda ishtirok etish uchun barcha zarur hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etmagan;

– Agentlik va Jamoatchilik Kengashining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish haqidagi talablarini o‘z vaqtida va lozim darajada bajarmagan.

13. Ushbu Nizomning 12-bandiga muvofiq tanlovda ishtirok etishga qo‘yilmagan talabgor tashkilotlarning topshirgan hujjatlari ko‘rmasdan qoldiriladi.



14. Talabgor davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratilmasa uning taqdim qilgan hujjatlari qaytarilmaydi.

### **3-bob. Loyihalarni hisobga olish va hisobotini yuritish**

15. Talabgor tashkilotlarning loyihalari tegishli tartibda ishchi organ tomonidan varaqlari raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan va tegishli imzo bilan tasdiqlangan maxsus daftarlarda ro'yxatga olinadi.

16. Hujjat qabul qilishning e'londa ko'rsatilgan oxirgi muddati tugagan kundan e'tiboran 20 ish kuni mobaynida ishchi organ tomonidan ro'yxatga olingan loyihalar baholash hamda ijtimoiy va umum ahamiyatini aniqlash maqsadida Jamoatchilik Kengashiga yuboriladi, ushbu Nizomning 12-bandida ko'rsatilgan talabgor tashkilotlarning loyihalari bundan mustasno.

17. Ishchi organi talabgor tashkilotlar loyihalarini umumlashtiradi, ularning statistik hisobi va hisobotini, loyihalarda aniqlangan asosiy kamchiliklar ko'rsatilgan tahliliy ma'lumotnomalarni tayyorlaydi. Tahliliy ma'lumotnomalar Jamoatchilik kengashiga loyihalar bilan bir vaqtda taqdim etiladi.

### **4-bob. Loyihalarni ko'rib chiqish, baholash, ularning ijtimoiy va umum ahamiyatini aniqlash mezonlari**

18. Jamoatchilik kengashi tomonidan loyihalarning ijtimoiy va umum ahamiyatini aniqlash bo'yicha talabgor tashkilotlardan qo'shimcha materiallar so'rab olinishi yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rilishi zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari Jamoatchilik kengashi raisi tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

19. Jamoatchilik kengashi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan mezonlar asosida loyihalarni baholaydi:

- talabgor tashkilotning tashkiliy faoliyati qonun hujjatlariga hamda tanlov maqsadlariga muvofiqligi;
- loyihaning aniq va batafsil yoritilganligi;
- davlat ijtimoiy buyurtmasini beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishishning yo'naltirilganligi, ya'ni unga erishish yo'llari;
- taqdim qilingan loyihaning samaradorligi, kutilayotgan natijalarning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari yuqoriligi;
- loyiha budjetining loyiha mazmuniga muvofiqligi va uni asoslantirilganligi, xarajat ajratilayotgan mablag'lardan oshib ketmasligi;
- tanlov ishtirokchisining taqdim qilgan loyihani amalga oshirish qobiliyati;
- loyihani amalga oshirishda ijtimoiy sheriklikning nazarda tutilishi va Agentlikning yoshlar bilan muloqot darajasini kuchaytirishi.

Baholash metodikasida davlat ijtimoiy buyurtmasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baholashning boshqa mezonlari ham belgilanishi mumkin.

20. Talabgor tashkilotning tashkiliy faoliyati qonun hujjatlariga hamda tanlov maqsadlariga muvofiqligi quyidagilar bilan belgilanadi:

– talabgor tashkilotning yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining hisobga olinganligi;

– ommaviy axborot vositasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda uning hududiy boshqarmalarida ro‘yxatga olinganligi (ommaviy axborot vositalari uchun);

– talabgor tashkilotning tegishli litsenziyaga egaligi, uning amal qilish muddati o‘tmaganligi (litsenziyalanadigan faoliyat uchun);

– talabgor tashkilotning tugatilmaganligi yoki tugatish jarayonida turmaganligi;

– talabgor tashkilot nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari tizimiga kirishi;

– loyihani amalga oshirish talabgor tashkilotning ustavi (nizomi) talablariga muvofiqligi;

– talabgor tashkilot faoliyatida unga davlat ijtimoiy buyurtmasi berish uchun to‘sqinlik qiluvchi qo‘pol qonunbuzarlik holatlarining mavjud emasligi.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan holatlar talabgor tashkilot taqdim etgan ta‘sis hujjatlari, guvohnomalar, litsenziyalar nusxalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda ularning hududiy organlaridan, boshqa tashkilotlardan olingan ma‘lumotlar asosida o‘rganib chiqiladi.

21. Loyihaning aniq va batafsil yoritilganligi quyidagilar bilan belgilanadi:

– loyihaning maqsad va vazifasi tanlov mavzusiga hamda tanlov yo‘nalishlaridan biriga muvofiq kelishi;

– taqdim etilgan loyihaning dolzarb ekanligini ifoda etish uchun ijtimoiy vaziyat tahlili mavjud ekanligi va muammoning aniq ifoda etilganligi;

– loyihani ishlab chiqishda sotsial tadqiqot metodlaridan (so‘rov, intervyu, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o‘rganish, test, statistik va h.z.) foydalanilganligi;

– loyihada manfaatdor loyiha ishtirokchilarining to‘g‘ri belgilanganligi, ya‘ni loyihaning kelgusidagi ijtimoiy ta‘siri qaratilgan yoki kundalik turmush tarzidagi ijtimoiy muammoni hal qilinishi rejalashtirilgan potensial yoshlarning qatlami aniq ifoda qilinganligi.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan holatlar talabgor tashkilotning arizasi (talabnomasi) va loyiha tasnifida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida o‘rganib chiqiladi.

22. Davlat ijtimoiy buyurtmasini beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadlarga erishishning yo‘naltirilganligi, ya‘ni unga erishish yo‘llari quyidagilar bilan belgilanadi:

– loyihaning davlat organi buyurtmasi talablariga muvofiqligi;

– loyiha doirasida ko‘tarilgan dolzarb masalani hal etish mexanizmining aniq ko‘rsatilganligi;



– loyihaning kalendar rejasi mavjudligi, kalendar rejada belgilangan chora-tadbirlarning uzviyligi, ketma-ketligi hamda amalga oshirish mexanizmining aniq belgilanganligi;

– loyihani amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining, shu jumladan tarmoq va hududiy dasturlarning ijrosiga ko‘maklashishi;

Ushbu bandeda ko‘rsatilgan holatlar talabgor tashkilotning arizasi (talabnomasi) va loyiha tasnifida ko‘rsatilgan loyihaning mazmuni, maqsadi, vazifasi va boshqa ma‘lumotlar, ko‘rsatkichlar asosida o‘rganib chiqiladi, loyiha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, Agentlikning buyurtmasi bilan solishtiriladi.

23. Taqdim qilingan loyihaning samaradorligi, kutilayotgan natijalarning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari yuqoriligi quyidagilar bilan belgilanadi:

– loyihani amalga oshirishning mahsuli, uning samarasi va ijtimoiy ta‘siri, kutilayotgan natijaning sifat va miqdoriy ko‘lami.

– loyihaning natijalaridan manfaatdor ishtirokchilarning qamrovi kengligi

– loyihaning hayotiylik davri va uni kelgusida davom ettirish imkoniyati;

– loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lan risklar, fors-major holatlar, noaniqliklar va boshqalar hisobga olinganligi.

Ushbu bandeda ko‘rsatilgan holatlar talabgor tashkilotning arizasi (talabnomasi) va loyiha tasnifida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida o‘rganib chiqiladi.

24. Loyiha budjetining loyiha mazmuniga muvofiqligi va uni asoslantirilganligi, xarajat ajratilayotgan mablag‘lardan oshib ketmasligi quyidagilar bilan belgilanadi:

– loyiha smeta xarajatlari loyiha mazmunidan kelib chiqib, maqsadli va asosli tuzilganligi, ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yilmaganligi;

– loyiha doirasida rejalashtirilgan xarajatlarning ajratilayotgan mablag‘lardan oshib ketmasligi;

– loyiha doirasida ajratilgan mablag‘lar ijtimoiy va umum ahamiyatga molik maqsadlarga, shuningdek, ish haqidan tashqari, umumiy mablag‘ning kamida 40 foizi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, asbob-uskunalar xarid qilish, loyihani yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish hamda boshqa zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishga, natijada tanlov maqsadlariga mos faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltirilishi lozim.

Ushbu bandeda ko‘rsatilgan holatlar talabgor tashkilotning arizasi (talabnomasi) va loyiha tasnifida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida o‘rganib chiqiladi.

25. Tanlov ishtirokchisining taqdim qilgan loyihasini amalga oshirish qobiliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

– loyihani talabgor tashkilot tomonidan amalga oshira olish imkoniyati realligi, kalendar rejada nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshira olish imkoniyati;

– loyihani amalga oshirishda talabgor tashkilotning birlamchi resurslari (manzil (bino), jamoa, aniq va asosli rejalar) mavjudligi;



– tegishli yo‘nalishdagi loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirganlik tajribasi. Xususan, o‘xshash yo‘nalishdagi muvaffaqiyatli loyihani amalga oshirganlik tajribasiga egaligi.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan holatlar talabgor tashkilotning arizasi (talabnomasi) va loyiha tasnifidagi ko‘rsatkichlar, shu jumladan talabgor tashkilot, uning hamkorlarining moddiy va nomoddiy hissasi (jalb etilayotgan mablag‘ va resurs miqdori) to‘g‘risida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida o‘rganib chiqiladi.

26. Loyihani amalga oshirishda ijtimoiy sheriklikning nazarda tutilishi va Agentlikning yoshlar bilan muloqot darajasini kuchaytirishiga ko‘maklashilishi quyidagilar bilan belgilanadi:

– loyiha doirasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishning nazarda tutilganligi;

– loyiha doirasida Agentlik va boshqa davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida qatnashishning nazarda tutilganligi;

– Agentlikning yoshlar bilan muloqot darajasini kuchaytirishiga qaratilgan aniq mexanizmlarning loyihada ko‘zda tutilganligi;

– loyiha doirasida Agentlik tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar ijrosining aholi va yoshlarning keng qatlamlari o‘rtasida targ‘ib qilinishiga ko‘maklashilishi va hamkorlikni o‘zaro qo‘llab-quvvatlanishi;

– loyihani amalga oshirishda Agentlik va boshqa davlat organlari bilan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o‘tkazishning nazarda tutilganligi;

– loyiha doirasida Agentlik va boshqa davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitim va shartnomalarni tuzish, birgalikdagi loyiha va rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishning ko‘zda tutilganligi;

– loyiha doirasida Agentlik va boshqa davlat organlari bilan o‘quv-uslubiy, axborot, maslahat va tashkiliy jihatdan o‘zaro qo‘llab-quvvatlash hamda axborot almashish tizimining ko‘zda tutilganligi.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan holatlar talabgor tashkilotning arizasi (talabnomasi) va loyiha tasnifida hamda Agentlikning buyurtmasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar, shuningdek talabgor tashkilot qo‘shimcha ravishda taqdim etgan manfaatdor davlat tashkilotlarining tavsiyanomalari, qo‘llab-quvvatlash xatlari asosida o‘rganib chiqiladi.

27. Loyihani o‘rganish natijalariga ko‘ra jamoatchilik kengashi a‘zolari har bir loyiha bo‘yicha baholash mezonlariga muvofiq baholash varaqasiga 1 dan 5 gacha samaradorlik darajasida ballar qo‘yadi, ya‘ni 1-eng past samaradorlik, 2-qoniqarsiz va nisbatan samaradorlik past, 3...4...5 tartibida).

Bunda, Jamoatchilik kengashi a‘zosi mehnat faoliyatini olib borayotgan nodavlat notijorat tashkiloti va fuqarolik jamiyati instituti hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan loyihalar taqdim etilgan taqdirda, mazkur loyihalarni baholashda ishtirok etmaydi.

28. Baholash varaqalarida ballarni hisoblab chiqish uchun jamoatchilik kengashi a'zolari orasidan 3 kishidan iborat bo'lgan hisoblash guruhi tuziladi.

Hisoblash guruhi tomonidan baholash varaqalaridagi ballar hisoblab chiqiladi va Jamoatchilik kengashi a'zolariga e'lon qilinadi.

29. Tanlov natijasiga ko'ra, baholashda ishtirok etgan Jamoatchilik kengashi a'zolarining soniga nisbatan o'rtacha umumiy ko'rsatkichi 3 (uch) balldan kam bo'lmagan hamda boshqa loyihalarga nisbatan o'rtacha ball eng yuqori bo'lgan ishtirokchi tanlovda g'olib deb topiladi.

Tanlov natijasiga ko'ra ishtirokchilarning ballari teng bo'lgan taqdirda ular o'rtasida loyihaning ijtimoiy samaradorligi, yoshlarning turmush tarziga ijobiy ta'siri, ijtimoiy va umum ahamiyatini o'rganib chiqib, Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan muhokama etiladi va g'olib ishtirokchi belgilanadi.

30. Jamoatchilik kengashi loyihalarni ko'rib chiqish, baholash, ularning ijtimoiy va umum ahamiyatini aniqlash jarayoniga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlardan iborat tegishli yo'nalishlar bo'yicha kasbiy va hayotiy tajribaga ega bo'lgan ekspertlarni jalb qilishi mumkin.

31. Loyiha mazkur Nizomning 21-26-bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq javob bermagan taqdirda, tegishli yo'nalish bo'yicha unga qo'yiladigan ball pasaytiriladi, biroq baholash natijalariga ko'ra o'rtacha umumiy ko'rsatkichi 3 (uch) balldan kam bo'lmagan talabgor tashkilot ishtirokchilar ro'yxatida qoldiriladi.

Talabgor tashkilotning tashkiliy faoliyati mazkur Nizomning 20-bandida ko'rsatilgan talablarga javob bermasa, uning yakuniy ballari natijasidan qat'i nazar g'oliblar ro'yxatidan chiqariladi.

32. Jamoatchilik kengashi tegishli tartibda taqdim etilgan loyihalarning ijtimoiy va umum ahamiyatini o'rganib chiqib, biroq baholash natijalariga ko'ra o'rtacha umumiy ko'rsatkichi 3 (uch) balldan kam bo'lmagan, boshqalarga nisbatan eng yuqori ball to'plagan loyihalar yuzasidan o'zining taklifini tayyorlaydi.

Shuningdek, yuqori ball to'plab, g'oliblar ro'yxatida turgan talabgor tashkilotga nisbatan davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish uchun to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lsa, bu haqdagi ma'lumotga ega bo'lgan Jamoatchilik kengashi a'zolari va boshqa manfaatdor shaxslar tegishli tartibda Jamoatchilik kengashiga murojaat qilishi mumkin.

33. Jamoatchilik kengashi o'z a'zolarining va boshqa manfaatdor shaxslarning murojaatiga asosan loyihalarni qo'shimcha tarzda o'rganib chiqish haqida qaror qabul qilishi hamda o'rganishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berishi mumkin.

Qo'shimcha o'rganib chiqish talab qilinmagan hollarda Jamoatchilik kengashi g'olib loyihalar ro'yxatini, har bir loyihaning nomi, summasi hamda talabgor nomi ko'rsatilgan holda tasdiqlaydi.

34. Jamoatchilik kengashining tanlov g'oliblari to'g'risidagi qarori bayonnoma bilan 2 nusxada rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Agentlikka yuboriladi.



## **6-bob. Loyihalarini moliyalashtirish**

35. Talabgor tashkilot taqdim etgan loyiha hamda tegishli tartibda Jamoatchilik kengashining qarorlari Agentlik tomonidan loyihalarni moliyalashtirish uchun asos hisoblanadi.

36. Jamoatchilik kengashi tanlov g'oliblarini aniqlagan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida uning natijalari tegishli tartibda Agentlik tomonidan ularning veb-saytlarida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi hamda tanlov g'olibi deb topilgan fuqarolik jamiyati instituti Agentlik bilan shartnoma tuzishi lozimligi haqida xabardor qilinadi.

Shuningdek, tanlovda g'olib bo'lmagan talabgorlarning loyihalarida yo'l qo'yilgan asosiy kamchiliklar Jamoatchilik kengashi yig'ilishida tahlil qilinib, uning natijasi bo'yicha axborot Agentlikning veb-saytlarida e'lon qilinishi mumkin.

37. Jamoatchilik kengashi qarorlari ijro uchun kelib tushgan kundan e'tiboran 15 kun muddat ichida Agentlik 3-ilovaga muvofiq shaklda davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'ini ajratish to'g'risidagi ikki tomonlama shartnoma loyihasi va davlat ijtimoiy buyurtmasi g'olibi sertifikatini tayyorlaydi.

G'oliblik sertifikati namunaviy shakli Jamoatchilik kengashi tomonidan belgilanadi. G'oliblik sertifikati fuqarolik jamiyati institutlariga tantanali ravishda topshiriladi.

Fuqarolik jamiyati institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmasini berish to'g'risidagi ikki tomonlama shartnoma imzolanganidan keyin shartnomada belgilangan muddatda va miqdorda davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari g'oliblarning hisob raqamiga loyihaning ish rejasiga muvofiq o'tkazib beriladi.

Shartnoma imzolangan kundan e'tiboran davlat ijtimoiy buyurtmasi bo'yicha loyihani amalga oshirish boshlangan hisoblanadi va shartnomada ko'rsatilgan muddatda yakunlanadi (asoslantirilgan sabablarga ko'ra loyiha muddatini uzaytirish hollari bundan mustasno).

38. Loyiha muddatini uzaytirishga davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihagini amalga oshirayotgan fuqarolik jamiyati institutlarining yozma asoslantirilgan murojaatlariga asosan tegishli tartibda Jamoatchilik kengashi tomonidan ruxsat beriladi.

Agar tanlovda g'olib deb topilgan nodavlat notijorat tashkiloti shartnomani imzolashdan bosh tortsa yoki tanlovni o'tkazish davomida o'z faoliyatini tugatgan bo'lsa, tugatish, qayta tashkil etish jarayonida bo'lsa yoki qonunchilikda belgilangan tartibda bankrot deb e'tirof etilgan bo'lsa Agentlik tanlovda ishtirok etgan va baholash natijalariga ko'ra, yuqori ball olgan, biroq o'rtacha umumiy ko'rsatkichi 3 (uch) balldan kam bo'lmagan keyingi ishtirokchiga shartnomani imzolashni taklif etishga haqli.

## **7-bob. Yakuniy qoidalar**

39. Loyihani amalga oshirayotgan fuqarolik jamiyati institutlari ajratilgan mablag'lardan samarali, oqilona va maqsadli foydalanishlari hamda bu boradagi



hisobotni belgilangan tartib va muddatlarda Agentlik huzuridagi maxsus komissiya va Jamoatchilik kengashiga taqdim etishlari lozim.

Foydalanilgan mablag'lar yuzasidan hisobot taqdim etish hamda mablag'lardan oqilona va maqsadli foydalanilishini monitoring qilish tartibi Jamoatchilik kengashi tomonidan belgilanadi.

40. Amalga oshirish muddati tugagan loyihalar bo'yicha hujjatlar Jamoatchilik kengashi va Agentlik tomonidan belgilangan tartibda arxivlanadi.

41. Davlat ijtimoiy buyurtmasi uchun ajratilgan mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanish, shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun tanlov g'olibi deb topilgan tashkilot rahbari javob beradi.

42. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

maqsadida

### **Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish uchun tanlov e'lon qiladi!**

Tanlovda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar bundan mustasno) quyidagi yo'nalishlardagi loyihalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi:

#### **Tanlov yo'nalishlari\***

- 1.
- 2.
- 3.

#### **Har bir loyiha uchun ajratiladigan yuqori mablag' miqdori\*\***

\* Davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish muddati shartnoma tuzilganidan boshlab 6 oydan 12 oygacha.

\*\* Jamoatchilik kengashi qarori asosida, loyihada so'ralayotgan umumiy summadan kelib chiqib, ajratiladigan mablag' miqdori o'zgarishi mumkin.

#### **Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:**

1. Tanlovga hujjatlar taqdim etilayotganligi to'g'risida yo'llanma murojaat (kuzatuv) xati;
2. yoshlar.gov.uz saytida joylashtirilgan shaklda davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasida amalga oshiriladigan loyihani o'z ichiga olgan talabgorning ariza (talabnoma)si va unga ilova qilinadigan hujjatlar;
3. Davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarishning batafsil tasnifi;
4. Qarzdorlik mavjud emasligi haqida davlat soliq inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnoma;
5. Oxirgi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan ro'yxatga olingan, talabgor tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ustav (nizom)ning nusxasi;
6. Talabgor tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
7. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi hamda uning hududiy boshqarmalarida ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi (ommaviy axborot vositalari uchun);
8. Talabgor tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan tegishli litsenziyaning nusxasi (litsenziyalanadigan faoliyat turi bilan shug'ullanish talab etilgan hollarda).
9. Loyihani amalga oshirishdan manfaatdor davlat davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning tavsiyanomalari, qo'llab-quvvatlash xatlari ilova qilinishi mumkin.

**Diqqat:** tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar belgilangan shaklga mos kelmagan hamda to'liq taqdim etilmagan taqdirda loyihalar qabul qilinmagan hisoblanadi.

Tanlovda ishtirok etish uchun tasdiqlangan hamda muxrlangan hujjatlar to'plamlari Yoshlar ishlari agentligiga aloqa pochta orqali hamda elektron ko'rinishda **2021-yil \_\_\_\_\_ dan \_\_\_\_\_ ga qadar** qabul qilinadi.

Tanlovda ishtirok etish shartlari va tanlov hujjatlarining namunalari bilan Yoshlar ishlari agentligining [www.yoshlar.gov.uz](http://www.yoshlar.gov.uz) rasmiy veb-saytida tanishish mumkin.

**Manzil:** 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 11-uy  
**E-mail:** [tanlov@yoshlar.gov.uz](mailto:tanlov@yoshlar.gov.uz)  
**Telefon:** \_\_\_\_\_



**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan e'lon qilingan  
Davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlovida ishtirok etish uchun**

**ning**

(nodavlat notijorat tashkiloti va fuqarolik jamiyati boshqa institutining nomi)

**ARIZA (TALABNOMA)SI**

<b>1. LOYIHANING TITUL VARAG'I</b>	
1.1. Ariza yuborilayotgan tanlovning mavzusi	
1.2. Tanlovning yo'nalishi	
1.3. Loyihaning nomi	
1.4. Ariza taqdim etgan tashkilotning nomi <i>(Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizomga muvofiq)</i>	
1.5. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana <i>(kun, oy, yil)</i> va guvohnoma raqami	
1.6. Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tashkiliy-huquqiy shakli	
1.7. Faoliyat hududi <i>(Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizomga muvofiq)</i>	
1.8. Talabgor tashkilotning rekvizitlari <i>(yuridik va pochta manzili, telefon, faks, veb-sayt, elektron manzili va boshqalar)</i>	
1.9. Tashkilot rahbarining F.I.Sh. va aloqa bog'lanish ma'lumotlari <i>(manzili, elektron pochta (e-mail) manzili, telefon kodi albatta ko'rsatilishi lozim)</i>	
1.10. Tashkilot buxgalterining F.I.Sh. va aloqa bog'lanish ma'lumotlari <i>(manzili, elektron pochta (e-mail) manzili, telefon kodi albatta ko'rsatilishi lozim)</i>	
1.11. Tashkilotning tasdiqlangan shtat jadvalidagi xodimlar soni	
1.12. Loyihani amalga oshirish muddati <i>(boshlanish sanasi – tugash sanasi)</i>	
1.13. So'ralayotgan mablag' miqdori <i>(so'mda)</i>	
1.14. Jalb qilinadigan mablag'larning miqdori <i>(so'mda)</i>	
1.15. Loyihani amalga oshirish uchun jalb etiladigan xodimlar soni	
1.16. Loyihani amalga oshirish uchun jalb etiladigan volontyorlar (ko'ngillilar) soni	
<b>2. LOYIHANING MAZMUNI</b>	
2.1. Muammoning qo'yilishi va uning dolzarbligi <i>(mavjud ijtimoiy muammo, uning</i>	



<i>ahamiyati va loyihani amalga oshirish dolzarbligini bayon etish, bir varaqdan ortiq bo'lmazligi lozim)</i>		
<b>2.2.</b> Loyihaning maqsadi ( <i>loyiha natijasida erishadigan asosiy maqsad</i> )		
<b>2.3.</b> Loyihaning asosiy vazifalari ( <i>loyihani amalga oshirish va maqsadga erishish uchun asosiy vazifalar</i> )		
<b>2.4.</b> Loyihani amalga oshirish shakli va mexanizmlari ( <i>loyihani amalga oshirish tartibi, media rejasi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf (risk) nazorat rejasi</i> )		
<b>2.5.</b> Loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar ( <i>loyihani amalga oshirish natijasida erishiladigan samaraning miqdori va sifat ko'rsatkichlari hamda ta'siri</i> )		
<b>2.6.</b> Ariza beruvchining mazkur sohadagi tajribasi ( <i>talabgor va jamoa a'zolarining faoliyati, yutuqlari va loyihadagi vazifalari</i> )		
<b>2.7.</b> Hamkorlar va ularning vazifalari ( <i>agar mavjud bo'lsa, talabgor tashkilotning loyiha doirasidagi hamkorlari hamda ularning vazifalari aks ettirilgan harakat rejasi</i> )		
<b>2.8.</b> Tashkilot va hamkorlarning qo'shgan hissasi ( <i>jalb etilayotgan mablag'lar, resurslar, tashkilot va hamkorlarning moddiy va nomoddiy hissasi</i> )		

<b>3. LOYIHANING UMUMIY BYUDJETI (XARAJATLAR SMETASI)</b> ( <i>shu jumladan, mavjud qo'shimcha moliyalashtirish manbalari (so'mda, qisqartirmagan holda)</i> )						
<b>T/r</b>	<b>Xarajatlar nomi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Narxi (1 dona)</b>	<b>Jami summasi</b>	<b>O'z (hamkorlar) mablag'lari hisobidan</b>	<b>Ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobidan</b>
<b>I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan (konsultativ xizmat va hokazo) xarajatlar</b>						
1.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>II. Tadbirlar o'tkazish uchun xarajatlar</b>						
2.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>III. Moddiy-texnik bazani (uskuna, texnika, obyekt va hkz.) mustahkamlash uchun xarajatlar</b>						
3.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>IV. O'quv-uslubiy, promo materiallarini harid qilish, reklama uchun xarajatlar</b>						
4.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>V. Boshqa (xizmat safari, aloqa, bank va hkz.) xarajatlar</b>						
5.1						
	<b>Jami:</b>					
	<b>JAMI (I+II+III+IV+V)</b>					

**4. LOYIHANING KALENDAR REJASI***(vaqt muddati ketma-ketligida)*

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati (sana, oy, yil / oraliq)	Xarajatlar miqdori
1.				
2.				
3.				

**5. LOYIHANING ISHTIROKCHILARI***(majburiyat darajasi ketma-ketligida)*

T/r	F.I.O.	Loyihadagi lavozimi	Aloqa (tel.) ma'lumoti	Loyihadagi vazifalari
1.			+998 ...	
2.				
3.				

**6. QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR***(tashkilot haqida qo'shimcha ma'lumot)*

1.	Davlat soliq inspeksiyasining arizachining soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi haqida ma'lumoti <i>(ma'lumotnoma nusxasini ilova qilinadi)</i>	
2.	O'rta va yirik davlat grantlari bo'yicha hisob raqamidagi oxirgi 1 yillik pul aylanmalari haqidagi ma'lumot <i>(ma'lumotnoma nusxasini ilova qilinadi)</i>	
3.	Agar davlat ijtimoiy buyurtmasi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma talab etilsa, litsenziya nusxasi ilova qilinadi.	
4.	Tashkilot OAV <i>(ommaviy axborot vositasi)</i> sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasini ilova qilinadi.	
5.	Bank rekvizitlari <i>(hisob raqami, MFO, INN, OKONX, bank nomi, bank manzili va telefon raqami)</i>	
6.	Amalga oshirilgan loyihalar <i>(talabgor tashkilot muqaddam tanlovlarda g'olib bo'lib, qo'lga kiritgan davlat iqtisodiy ko'magi soni va nomi ko'rsatiladi)</i>	

**7. O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH VA O'ZIGA-O'ZI BAHO BERISH***(o'zini-o'zi audit qilish)*

1.	Loyiha qayta topshirilayotgan bo'lsa, nima sababdan qayta topshirilayotgani haqida asosli ma'lumot	
2.	Loyiha doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarning sifat nazorat rejasi, samaradorligini baholash rejasi	
3.	Loyiha doirasida xarajatlarning asosliligi va narxlarning realligini tasdiqlovchi qo'shimcha ma'lumotlar <i>(shartnoma, invoices, boshqa tashkilotlarning tijorat takliflari)</i>	

**8. LOYIHANING YAKUNIY QISMI****Tanlov nizomi bilan tanishdim, arizadagi barcha ma'lumotlar to'g'riligiga kafolat beraman:**

\_\_\_\_\_  
Tashkilotning to'liq nomi va lavozim nomi

\_\_\_\_\_  
Imzo, tashkilot muhri

\_\_\_\_\_  
Ariza bergan tashkilot rahbarining F.I.O.

\_\_\_\_\_  
Sana

**ShARTNOMA № \_\_\_\_\_**  
(davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish to'g'risida)

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi nomidan direktor A.Sa'dullayev, keyingi o'rinlarda Agentlik deb ataluvchi, bir tomondan va " \_\_\_\_\_ " NNT nomidan direktori \_\_\_\_\_, keyingi o'rinlarda Ijtimoiy buyurtma oluvchi deb ataluvchi, ikkinchi tomondan bundan buyon birgalikda Tomonlar deb ataluvchilar, davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish to'g'risidagi mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**1. Shartnoma predmeti**

1.1. Yoshlar ishlari agentligi Jamoatchilik kengashining \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_\_ - \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli bayoniga asosan, Agentlik Ijtimoiy buyurtma oluvchiga mazkur shartnomada va uning ilovasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish majburiyatini, Ijtimoiy buyurtma oluvchi esa davlat ijtimoiy buyurtmasini qabul qilish va uni shartnomada va uning ilovalarida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun sarflash majburiyatini oladi.

1.2. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan kuchga kiradi va \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ga qadar amal qiladi. Ijtimoiy buyurtma oluvchi mazkur shartnomaning amal qilish muddati davomida ijtimoiy buyurtmani to'liq bajarishni o'z zimmasiga oladi.

1.3. Quyidagilar mazkur shartnomaga ilova qilinadi va uning ajralmas qismi hisoblanadi:

1-ilova – Kalendar reja va loyiha smetasi (qiymati);

2-ilova – Hisobot shakllari.

**2. Tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

**2.1. Ijtimoiy buyurtma oluvchi quyidagi huquqlarga ega:**

Agentlikdan mazkur shartnoma shartlariga rioya etilishini talab qilish;

davlat ijtimoiy buyurtmasining mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorlarda to'lanishini talab qilish;

o'ziga bog'liq bo'lmagan uzrli holatlar sababli ijtimoiy buyurtmani mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshira olmaganda Agentlikka shartnoma muddatini uzaytirish haqida yozma ravishda murojaat qilish. Bunda shartnoma muddatini uzaytirish masalasi Agentlik tomonidan shartnoma shartlari bajarilishi kechiktirilishi sabablarini o'rganish asosida mustaqil ravishda 10 ish kuni mobaynida hal etiladi;

ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishda jismoniy yoki yuridik shaxslarning ko'magidan (Agentlikni yozma xabardor qilgan holda) foydalanish huquqiga ega.

**2.2. Ijtimoiy buyurtma oluvchi quyidagi majburiyatlarni oladi:**

mazkur shartnoma shartlariga rioya etishi va o'z vazifalarini belgilangan muddatda sifatli bajarishi;

ijtimoiy buyurtma sifatida ajratilgan pul mablag'laridan, shartnoma shartlariga muvofiq maqsadli foydalanishi;

ijtimoiy buyurtmani yakuniga yetkazganidan so'ng ijtimoiy buyurtma sifatida ajratilgan va yakuni bo'yicha tejab qolingan pul mablag'larini buyurtma yakunlanganidan so'ng 5 (besh) bank kuni muddatda Agentlikka qaytarishi shart.

**2.3. Agentlik quyidagi huquqlarga ega:**

Ijtimoiy buyurtma oluvchidan mazkur shartnoma shartlariga va uning ilovalariga rioya etilishini, ijtimoiy buyurtma shaklida ajratilgan pul mablag'laridan maqsadli foydalanishni talab qilish;



Ijtimoiy buyurtma oluvchi tomonidan mazkur shartnoma shartlariga rioya etilishini nazorat qilish;

Ijtimoiy buyurtma oluvchiga bog'liq bo'lmagan ayrim sabablarga ko'ra ijtimoiy buyurtmani mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshira olmagan taqdirda shartnoma muddatini uzaytirish;

Ijtimoiy buyurtma oluvchi tomonidan ayrim sabablarga ko'ra shartnoma shartlari, ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish bo'yicha kalendar rejasi va xarajatlar smetasi ijrosida qonunchilik va shartnoma qoidalari buzilgan taqdirda, ushbu buzilishlar bartaraf etilgunga qadar Ijtimoiy buyurtma oluvchiga navbatdagi to'lovni amalga oshirmaslik huquqiga ega.

#### **2.4. Agentlik quyidagi majburiyatlarni oladi:**

mazkur shartnoma shartlariga rioya etishga;

davlat ijtimoiy buyurtmasini mazkur shartnomada belgilangan muddatda va miqdorda Ijtimoiy buyurtma oluvchiga to'lashga majbur.

### **3. Davlat ijtimoiy buyurtmasining qiymati, uni ajratish va davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish tartibi**

3.1. Mazkur shartnomaga muvofiq davlat ijtimoiy buyurtmasining qiymati \_\_\_\_\_ so'mni tashkil etadi, ushbu summa qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladi.

3.2. Mazkur shartnoma imzolangan paytdan boshlab Agentlik 30 kalendar kun davomida mazkur shartnomaning 3.1-bandida keltirilgan pul mablag'larining 15 (o'n besh) foizini Ijtimoiy buyurtma oluvchining bank hisobraqamiga naqd pulsiz shaklida o'tkazib beradi.

3.3. Keyingi to'lovlar ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish bo'yicha kalendar rejasida belgilangan ishlarining Ijtimoiy buyurtma oluvchi taqdim etadigan ishlar bajarilganligi to'g'risidagi hisobotlar tahlilidan kelib chiqib, hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida, shartnoma shartlari va uning ilovalaridagi talablar buzilmagan taqdirda amalga oshiriladi. Bunda Ijtimoiy buyurtma oluvchi tomonidan shartnoma shartlari yoki uning ilovalaridagi talablar buzilishi bartaraf etilgan taqdirda, Agentlik unga keyingi to'lovlarni amalga oshiradi.

3.4. Mazkur shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq, ish haqidan tashqari, loyiha doirasida ajratiladigan mablag'larning 40 foizi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, asbob-uskunalar xarid qilish, loyihani yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish hamda boshqa zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun belgilangan taqdirda, 3.2-bandida keltirilgan foiz stavkasi oshirilishi mumkin.

### **4. Ijtimoiy buyurtma amalga oshirilishini monitoring va nazorat qilish**

4.1. Ijtimoiy buyurtma oluvchi har yilning choragi yakuni bo'yicha keyingi chorakni 10-sanasiga qadar Agentlikda tashkil etilgan maxsus komissiyaga (keyingi o'rinlarda – maxsus komissiya) bajarilgan ishlar to'g'risida hisobotni mazkur shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq taqdim etib boradi.

4.2. Maxsus komissiya hisobotlarni qabul qiladi, shuningdek, davlat buyurtmasini bajarish bo'yicha axborot va boshqa tahliliy materiallarni tayyorlaydi va ma'lumot uchun Agentlikka takdim etadi.

4.3. Davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan loyihalarni maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladigan monitoringi quyidagilardan iborat:

davlat ijtimoiy buyurtmasining tasdiqlangan rejaga (smetaga) ko'ra bajarilishini monitoring qilish;

moliyaviy mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishini monitoring qilish.;

belgilangan muddatlarda hisobotlar taqdim etilishini hamda hisobot ko'rsatkichlarini kalendar rejasi va xarajatlar smetasiga muvofiqligini nazorat qilish;

olingan natijalarning samaradorligini baholash.

4.4. Ushbu shartnomaning 4.3-bandida nazarda tutilgan monitoring quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

a) taqdim etilgan hisobotlarni ushbu shartnomada nazarda tutilgan maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqish;

b) zarur hollarda loyihani bevosita joyiga borgan holda o'rganish, bunda quyidagi asosiy jihatlariga e'tibor qaratish:

loyiha bo'yicha imzolangan shartnoma va uning kalendar rejasiga asosan bajarilish holati;

ajratilgan moliyaviy mablag'ning maqsadli sarflanayotganligi nazorat qilish. Bunda Ijtimoiy buyurtma oluvchi tomonidan unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan bankda hisobraqamidagi mablag'lar aylanmasi haqida ma'lumot taqdim etiladi;

har bir loyiha doirasida qo'lga kiritiladigan yakuniy natijalar.

Maxsus komissiya Ijtimoiy buyurtma oluvchidan davlat ijtimoiy buyurtmasining maqsadli sarflanganini tasdiqlovchi har qanday ma'lumotlar va hujjatlarni so'rab olishga haqli.

4.5. Belgilangan ishlarning alohida bosqichlarining rejalashtirilgan hajmlarini o'z muddatida bajarmaslik, shuningdek, hisobotlarni topshirish muddatlarini va moliyaviy intizomni buzish Agentlikning tashabbusi bilan moliyalashtirishni to'xtatishiga va shartnomani bekor qilinishiga asos bo'lishi va Ijtimoiy buyurtma oluvchiga nisbatan tegishli choralar ko'rishga olib kelishi mumkin.

4.6. Agar kalendar rejasini amalga oshirish va xarajatlar smetasiga nisbatan nomuvofiqlik Ijtimoiy buyurtma oluvchiga ma'lum bo'lsa, u bu haqda besh kalendar kun ichida maxsus komissiyaga ma'lum qilishi shart.

Agentlikka taqdim etilgan hujjatlar asosida (bildirishnoma, loyihalar to'g'risidagi hisobot) aniqlangan o'zgarishlar yoki olingan natijalar kutilganidan o'zgacha bo'lsa, loyihalarni kelgusida moliyalashtirish yoki moliyalashtirishni to'xtatish, loyihaning maqsadli parametrlarini qayta rasmiylashtirish yoki shartnomani bir taraflama bekor qilish masalasi Agentlik tomonidan hal etiladi.

Moliyalashtirilishi to'xtatilgan loyihalardan bo'shagan mablag'lar, shuningdek, mazkur shartnoma va uning ilovalariga nomuvofiq tarzda sarflangan mablag'lar Ijtimoiy buyurtma oluvchi tomonidan 5 (besh) bank kunida Agentlik hisobraqamiga qaytarib berilishi lozim.

## **5. Shartnomaga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish va bekor qilish tartibi**

5.1. Mazkur shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2. Mazkur shartnomani bekor qilish tomonlarning kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi, mazkur shartnomaning 5.3-bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

5.3. Ijtimoiy buyurtma oluvchi quyidagi harakatlardan birini amalga oshirgan taqdirda, jumladan: ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish muddatini ikki va undan ortiq marta uzrli sabablarsiz buzgan;

ijtimoiy buyurtma sifatida ajratilgan pul mablag'laridan maqsadsiz foydalangan;

Agentlikning mazkur shartnomaning 4.1-bandida belgilangan harakatlariga to'sqinlik qilgan yoki ijro etmagan;

mazkur shartnoma va uning ilovalari talablarini qo'pol tarzda buzgan (bunda mazkur shartnoma va uning ilovalari talablarini qo'pol tarzda buzilganligi haqida har bir konkret holatda maxsus komissiya tomonidan xulosa beriladi) taqdirda Agentlik Ijtimoiy buyurtma oluvchini 10 ish kuni oldin yozma ravishda ogohlantirgan holda mazkur shartnomani bir taraflama bekor qilish va ijtimoiy buyurtma shaklida ajratilgan pul mablag'larining ijtimoiy buyurtmaning bajarilmagan qismiga teng miqdorini yoki noto'g'ri bajarilgan qismini Agentlikka qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

5.4. Mazkur shartnoma yuzasidan vujudga keladigan har qanday nizolar Tomonlarning kelishuviga muvofiq hal etiladi.

Tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda, vujudga kelgan nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

5.5. Davlat ijtimoiy buyurtmasi uchun ajratilgan mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanish, shuningdek, shartnomada ko'rsatilgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarish uchun nodavlat notijorat tashkilotining rahbari javob beradi.

5.6. Mazkur shartnoma taraflarning har biriga bir nusxadan jami ikki nusxada o'zbek tilida tuzildi.

#### 6. Tomonlar rekvizitlari

<p><b>O'zbekiston Respublikasi</b> <b>Yoshlar ishlari agentligi</b> 100011, Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 11 "Markaziy bank" Toshkent shahar Bosh boshqarmasi IFUT 84111, MFO 00014, STIR 207 323 290 XS 23 402 000 300 100 001 010 Moliya vazirligi g'aznachiligi amaliyot boshqarmasi G'azna XS 23 402 000 300 100 001 010 "Markaziy bank" Toshkent sh. Boshqarmasi MFO 00014. STIR 201122919</p>	
<p><b>Direktor</b> _____ <b>A.Sa'dullayev</b></p>	<p><b>Rahbar</b> _____</p>
<p>MO'</p>	<p>MO'</p>



<b>1. LOYIHANING KALENDAR REJASI</b> (vaqt muddati ketma-ketligida)				
T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati (sana, oy, yil / oraliq)	Xarajatlar miqdori
1.				
2.				
3.				

<b>2. LOYIHANING XARAJATLAR SMETASI</b> (shu jumladan, mavjud qo'shimcha moliyalashtirish manbalari (so'mda, qisqartirmagan holda))						
T/r	Xarajatlar nomi	Miqdori	Narxi (1 dona)	Jami summasi	O'z (hamkorlar) mablag'lari hisobidan	Ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobidan
<b>I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan (konsultativ xizmat va hokazo) xarajatlar</b>						
1.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>II. Tadbirlar o'tkazish uchun xarajatlar</b>						
2.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>III. Moddiy-texnik bazani (uskuna, texnika, obyekt va hkz.) mustahkamlash uchun xarajatlar</b>						
3.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>IV. O'quv-uslubiy, promo materiallarini harid qilish, reklama uchun xarajatlar</b>						
4.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>V. Boshqa (xizmat safari, aloqa, bank va hkz.) xarajatlar</b>						
5.1						
	<b>Jami:</b>					
	<b>JAMI (I+II+III+IV+V)</b>					

**Davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish bo'yicha tahliliy va moliyaviy  
HISOBOT SHAKLI**

<b>1. Loyiha to'g'risida umumiy ma'lumot</b>	
1.	Tashkilot nomi
2.	Loyiha nomi
3.	Shartnoma raqami
4.	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakli
5.	Ajratilgan mablag' miqdori (so'mda)
6.	Loyiha tatbiq etilgan hudud (viloyat shahar, tuman) nomi
7.	Hisobot davri
8.	Loyiha amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar
<b>2. Loyihani amalga oshirish natijalari</b>	
9.	Loyiha doirasida maqsadli guruh tarkibi va qamrovi (soni, yoshi, jinsi, millati va boshqalar)
10.	Loyihani amalga oshirishning mahsuli, uning samarasi va ijtimoiy ta'siri, kutilayotgan natijaning sifat va miqdoriy ko'lami
11.	Loyihani amalga oshirish uchun (ishlab chiqilgan) tayyorlangan materiallar, foto va video mahsulotlar (nomoddiy intellektual mulk) va ularni realizatsiya qilinishi (havolalar va keltirilishi kerak)
12.	Loyiha doirasida o'tkazilgan tadbirlar natijalari, amaliy kelishuvlar va xkz. (tadbirlarning turi: davra suhbatlari, seminarlar, uchrashuvlar, musobaqalar, forumlar, aqliy hujum va boshqalar har biri alohida)
13.	Loyihani amalga oshirishda yuzaga kelgan muammolar
14.	Yuzaga kelgan muammolar hamda loyiha natijalari yuzasidan takliflaringiz
15.	Loyiha yakunlanish muddatidan keyin ishlatilmay qolgan mablag' miqdori (so'mda)

<b>3. Loyihaning kalendar rejasi ijrosi</b> (vaqt muddati ketma-ketligida)				
T/r	Chora-tadbirlar nomi	Muddati (sana, oy, yil / oraliq)	Bajarilishi (ijro holati, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari)	Amalga oshirilgan xarajatlar miqdori (so'm)
1.				
2.				
3.				

4. Loyihaning xarajatlar smetasi ijrosi (shu jumladan, mavjud qo'shimcha moliyalashtirish manbalari (so'mda, qisqartirilmagan holda))						
T/r	Xarajatlar nomi	Miqdori	Narxi (1 dona)	Jami summasi	Ajratilgan buyurtma mablag'lari	Amalda qilingan xarajat
<b>I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan (konsultativ xizmat va hokazo) xarajatlar</b>						
1.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>II. Tadbirlar o'tkazish uchun xarajatlar</b>						
2.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>III. Moddiy-texnik bazani (uskuna, texnika, obyekt va hkz.) mustahkamlash uchun xarajatlar</b>						
3.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>IV. O'quv-uslubiy, promo materiallarini harid qilish, reklama uchun xarajatlar</b>						
4.1						
	<b>Jami:</b>					
<b>V. Boshqa (xizmat safari, aloqa, bank va hkz.) xarajatlar</b>						
5.1						
	<b>Jami:</b>					
	<b>JAMI (I+II+III+IV+V)</b>					

**Tashkilot /(loyiha) rahbari:**

\_\_\_\_\_  
Imzo, tashkilot muxri

\_\_\_\_\_  
F.I.O.

**Tashkilot /(loyiha) bosh hisobchisi:**

\_\_\_\_\_  
Imzo

\_\_\_\_\_  
F.I.O.

**Loyiha rahbari:**

\_\_\_\_\_  
Imzo

\_\_\_\_\_  
F.I.O.

**Izoh:** Yarim yillik, yillik, yakuniy tahliliy va moliyaviy hisobot qo'llab-quvvatlangan loyihani maqsad, vazifasi, kalendar rejasi, xarajatlar smetasiga muvofiq bajarilayotganligini baholash vositasi hisoblanadi.

Agar loyiha 6 oygacha bo'lgan muddatda amalga oshirilayotgan bo'lsa, yakuniy hisobot topshiriladi. Agar loyihalar yilning birinchi yarmida qo'llab-quvvatlangan bo'lsa, loyihani amalga oshirish muddati olti oydan ohsa yarim yillik, yillik va yakuniy tahliliy va moliyaviy hisobot taqdim etiladi.

Agar loyiha yilning ikkinchi yarmida qo'llab-quvvatlangan bo'lsa yarim yillik, yillik va loyiha tugagandan keyin yakuniy tahliliy va moliyaviy hisobot taqdim etiladi. Hisobotlar hisobot davri yoki loyiha tugagandan keyin 15 kun muddat ichida taqdim etiladi.

Hisobotlar loyihaning maqsad va vazifalari doirasida amalga oshirilgan ishlarning o'sib borish tarzida taqdim etiladi. Hisobotda o'tkazilgan jami tadbirlar soni, maqsadli guruhning soni, tayyorlangan tarqatma materiallar, erishilgan samara, uning ko'lami, yakuniy natija aks ettiriladi. Shuningdek, loyihada qo'yilgan muammo qisman yoki to'liq bartaraf etilgani son va sifat ko'rsatkichlari bilan isbotlab beriladi. Aniq misollar keltirish, ularni tasdiqlovchi hujjatlarni ko'rsatish, loyihani muammoni hal etishga va uni xalq orasida tanilishiga ta'siri aniq ko'rsatib beriladi. Loyihaning davomiyligini ta'minlash maqsadida istiqboldagi rejalar va qo'shimcha mablag' olmasdan amalga oshirish yo'llari, mexanizmlari bayon etiladi.

Hisobotda qayd etilgan fikrlarni asoslash uchun ijodiy hisobot, qilingan ishlarni tasdiqlovchi materiallar, ishtirokchilarning fikrlari, matbuot materiallari, turli video, foto va audio hujjatlar ilova qilinadi.

Loyiha yakunlanish muddatidan keyin ishlatilmay qolgan mablag' 30 kun muddatda, Yoshlar ishlari agentligining bank hisob raqamiga qaytariladi.



**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ajratilgan  
davlat ijtimoiy buyurtmalarini monitoring qilish tartibi to'g'risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga (keyingi o'rinlarda – fuqarolik jamiyati institutlari) ajratilgan davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'larini maqsadli foydalanilishini monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat ijtimoiy buyurtmasi – Agentlik tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga tanlov asosida beriladigan davlat topshirig'i;

Agentlik tomonidan ajratiladigan davlat ijtimoiy buyurtmasi ijrosini nazorat qilish bo'yicha maxsus komissiya (keyingi o'rinlarda – maxsus komissiya) monitoringi – davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida mablag' ajratilgan loyihalarning tasdiqlangan rejasiga ko'ra bajarilishini, moliyaviy mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishini, belgilangan muddatlarda hisobotlar taqdim etilishini va olingan natijalarning samaradorligini baholash;

monitoring ma'lumotnomasi – kuzatish (o'rganish) natijasi bo'yicha tayyorlanadigan va tomonlar tasdiqlaydigan hujjat;

ijtimoiy buyurtma oluvchi – Agentlik huzuridagi yoshlar masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashining tegishli qaroriga asosan, davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish bo'yicha tanlovda g'olib bo'lgan hamda Agentlik bilan tegishli shartnoma imzolagan tashkilot.

3. Maxsus komissiya tarkibi Agentlik markaziy apparati, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillaridan iborat bo'ladi.

**2-bob. Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari**

4. Quyidagilar maxsus komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat ijtimoiy buyurtmasining tasdiqlangan rejaga (smetaga) ko'ra bajarilishini monitoring qilish;

ijtimoiy buyurtma oluvchidan mazkur shartnoma shartlariga va uning ilovalariga rioya etilishini, ijtimoiy buyurtma shaklida ajratilgan pul mablag'laridan maqsadli foydalanishni o'rganish;

belgilangan muddatlarda hisobotlar taqdim etilishini hamda hisobot

ko'rsatkichlarini kalendar rejasi va xarajatlar smetasiga muvofiqligini solishtirish;  
loyihani amalga oshirishdan olingan natijalarning samaradorligini baholash;  
loyihada belgilangan muddatlarda tadbirlar o'tkazilganligi va uning samarasini kuzatish (o'rganish);

monitoring jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf yetish yuzasidan Agentlikka va tashkilot rahbarlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish;

Jamoatchilik kengashi va Agentlikni ishonchli axborot bilan ta'minlash va davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini monitoring qilish natijalari bo'yicha tegishli takliflarni tayyorlash;

texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda Jamoatchilik kengashiga ko'maklashish.

### **3-bob. Ijtimoiy buyurtma oluvchi tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlari**

5. Ijtimoiy buyurtma oluvchining huquqlari quyidagilardan iborat:

monitoring o'tkazilishida o'z fikr va mulohazalarini bildirish;

monitoring o'tkazilishida dalillar keltirish, shu bilan birga advokat xizmatidan foydalanish;

o'ziga bog'liq bo'lmagan uzrli holatlar sababli ijtimoiy buyurtmani belgilangan muddatlarda amalga oshira olmaganda Agentlikka va maxsus komissiyaga shartnoma muddatini uzaytirish haqida yozma ravishda murojaat qilish. Bunda shartnoma muddatini uzaytirish masalasi Agentlik tomonidan shartnoma shartlari bajarilishi kechiktirilishi sabablarini o'rganish asosida mustaqil ravishda 10 ish kuni mobaynida hal etiladi;

ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishda jismoniy yoki yuridik shaxslarning ko'magidan (Agentlikni yozma xabardor qilgan holda) foydalanish huquqiga ega. qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

6. Ijtimoiy buyurtma oluvchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

maxsus komissiyaga monitoringni o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratib berish;

maxsus komissiya va Agentlikning so'roviga asosan tegishli hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, tushuntirishlar berish;

Jamoatchilik kengashi tomonidan belgilangan vaqt va shaklda tahliliy ma'lumot va moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish;

davlat granti mablag'lari hisobidan sotib olingan asosiy vositalarning hisobi, saqlanishini, butligi va maqsadli foydalanishini ta'minlash;

ijtimoiy buyurtmani yakuniga yetkazganidan so'ng ijtimoiy buyurtma sifatida ajratilgan va yakuni bo'yicha tejab qolingan pul mablag'larini buyurtma yakunlanganidan so'ng 5 (besh) bank kuni muddatda Agentlikka qaytarishi shart.

### **4-bob. Monitoring o'tkazish tartibi**

7. Ijtimoiy buyurtma oluvchi har oyning 10-sanasiga qadar maxsus komissiyaga bajarilgan ishlar to'g'risida hisobotni taqdim etib boradi.



Maxsus komissiya Agentlikning topshirig'iga ko'ra, zarur hollarda, loyihani bevosita joyiga borgan holda o'rganishi, tahlil o'tkazishi yoki ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi yuzasidan qo'shimcha va batafsil tekshirishlar o'tkazish bo'yicha nazorat qiluvchi organlarga belgilangan tartibda yozma murojaatlar qilishi mumkin.

8. Belgilangan ishlarning alohida bosqichlarining rejalashtirilgan hajmlarini o'z muddatida bajarmaslik, shuningdek, hisobotlarni topshirish muddatlarini va moliyaviy intizomni buzish Agentlikning tashabbusi bilan moliyalashtirishni to'xtatilishiga va shartnomani bekor qilinishiga asos bo'lishi va ijtimoiy buyurtma oluvchiga nisbatan tegishli choralarda ko'rishga olib kelishi mumkin.

9. Agar kalendar rejasini amalga oshirish va xarajatlar smetasiga nisbatan nomuvofiqlik Ijtimoiy buyurtma oluvchiga ma'lum bo'lsa, u bu haqda besh kalendar kun ichida maxsus komissiyaga ma'lum qilishi shart.

Taqdim etilgan hujjatlar asosida (bildirishnoma, loyihalar to'g'risidagi hisobot) aniqlangan o'zgarishlar yoki olingan natijalar kutilganidan o'zgacha bo'lsa, loyihalarni kelgusida moliyalashtirish yoki moliyalashtirishni to'xtatish, loyihaning maqsadli parametrlarini qayta rasmiylashtirish yoki shartnomani bir taraflama bekor qilish masalasi Agentlik tomonidan hal etiladi.

Moliyalashtirilishi to'xtatilgan loyihalardan bo'shagan mablag'lar, shuningdek, mazkur shartnoma va uning ilovalariga nomuvofiq tarzda sarflangan mablag'lar Ijtimoiy buyurtma oluvchi tomonidan 5 (besh) bank kunida Agentlik hisobraqamiga qaytarib berilishi lozim.

10. Maxsus komissiya kuzatish (o'rganish) natijalariga ko'ra monitoring doirasida qilingan ishlar bo'yicha monitoring ma'lumotnomasini (titul varag'i va hisobot) har chorak yakuni bilan keyingi oyning 15 sanasiga qadar tegishligi bo'yicha Jamoatchilik kengashiga taqdim etadi.

11. Titul varag'ida quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

- davlat ijtimoiy buyurtmasini olgan tashkilot nomi;
- davlat ijtimoiy buyurtmasini olish uchun taqdim etilgan loyiha nomi;
- davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish haqidagi qabul qilingan qaror sanasi va raqami;
- shartnoma tuzilgan sana va raqami, ajratilgan mablag' miqdori;
- loyihani bajarish muddati;
- kuzatish (o'rganish)lar o'tkazilgan bo'lsa (o'rganuvchilarning FISH), uni sanasi va natijasi;

12. Hisobotda quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

- loyihada o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar haqiqatda amalga oshirilganligi;
- loyihaga jalb etilgan shaxslarni son, bilim va tegishli ko'nikmaga egaligi;
- keng jamoatchilikning loyihani qo'llab-quvvatlash darajasini baholash (shu jumladan, davlat organlari, OAV, fuqarolarni o'zini o'zi boshqari organlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari);
- loyihani amalga oshirish yakunida erishilgan natija;
- loyiha doirasida o'tkazilgan tadbirlarga ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanganligi;



- loyihani amalga oshirida tasdiqlangan budjetga rioya qilinganligi;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi hisobiga olingan asoiy vosita va boshqa moddiy boyliklarning mavjudligi, ularni butligi;
- loyihani amalga oshirishda aniqlangan muammolar;
- kelgusida shunga o‘xshash loyihalarni amalga oshirishni yanada samarador bo‘lishiga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

13. Monitoring natijalari monitoring yakunlangandan so‘ng 10 kundan kechiktirmay Jamoatchilik kengashiga kiritiladi.

#### **4-bob. Yakuniy qoidalar**

14. Mazkur nizom yuzasidan vujudga keladigan har qanday nizolar Agentlik hamda ijtimoiy buyurtma oluvchi kelishuviga muvofiq hal etiladi.

Tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda, vujudga kelgan nizolar sud tartibida hal qilinadi.

15. Davlat ijtimoiy buyurtmasi uchun ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish, shuningdek, loyihada ko‘rsatilgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni sifatli va o‘z vaqtida bajarish uchun ijtimoiy buyurtma oluvchining rahbari javob beradi.

**Jamoatchilik Kengashining 2021-yil 1-martdagi yig'ilishida loyiha tashabbuskori tomonidan taqdimot qilingan hamda  
qayta takomillashtirish va keyingi yig'ilishda ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan loyihalar to'g'risida**

**MA'LUMOT**

№	Tashkilot nomi	Tanlov yo'nalishi	Loyiha nomi	So'ralayotgan mablag' miqdori (mln. so'm)	Loyihaning maqsadi	Loyihadan kutilayotgan natija
1.	Yosh kinoijodkorlar Kengashi NNT	Motivatsion videoroliklar	Motivatsion videoroliklar tayyorlash loyihasi	500,0	Yoshlarning ilg'or yutuqlarini namoyish qilishga qaratilgan 10 ta motivatsion video rolik tasvirga olish.	Mazkur video roliklar 3 oy muddatda tasvirga olinishi rejalashtirilmoqda.
2.	O'zbekiston milliy kinokomissiyasi NNT	Motivatsion va "kouching" video materiallar	"O'zbekistonlik" hujjatli filmi tayyorlash loyihasi	1 800,0	AQSHning nufuzli universitetlarida ta'lim olayotgan hamyurtlarimiz, ishbilarmonlar, turli xalqaro tashkilotlar hamda nufuzli kompaniyalarda o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan O'zbekistonlik yoshlar hayoti haqida hujjatli film olish.	Mazkur film orqali dunyo bo'ylab muvaffaqiyatga erishgan yoshlar haqida ta'sirli hikoya qilib bergan holda, boshqa yurtdoshlarimiz va hatto dunyoning o'zga davlatlari fuqarolari hamda millatlari vakillarida O'zbekistonga nisbatan ijobiy imidjini yaratadigan, yoshlarda motivatsion kayfiyat uyg'otadigan milliy targ'ibot shaklini yaratiladi.
3.	Ijtimoiy media loyihalar markazi NNT	Motivatsion va "kouching" video materiallar	- "Bizdan maslahat" ko'rsatuvi Davomiyligi: 10 daqiqa Jami soni: 30 ta - "Men kimman?" ko'rsatuvi Davomiyligi: 10 daqiqa	900,0	Xorijda o'qish yoki ishlash istagida chiqmoqchi bo'lgan yoshlar uchun batafsil ma'lumot yangicha yondashuvda taqdim etish.	Ko'rsatuv orqali xorijga o'qish va ishlash istagida kelayotgan yoshlarimiz u yerda amal qilish lozim bo'lgan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishadi va turli muammoli vaziyatlarda dasturulamal bo'lib hizmat qiluvchi vositaga ega bo'lishadi

			<p><i>Jami soni: 30 ta</i> - "iTa'lim" ko'rsatuv <i>Davomiyligi: 25</i> <i>daqiqa</i> <i>Jami soni: 12 ta</i> - "Savollar bormi?" ko'rsatuv <i>Davomiyligi: 20</i> <i>daqiqa</i> <i>Jami soni: 12 ta</i></p>			
4.	O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi NNT	Motivatsion va "kouching" video materiallar	"Vatandosh tajribasi" loyihasi	450,0	Yoshlarni muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishga undaydigan tashqi va ichki harakatlantiruvchi kuchlarni to'g'ri taqsimlashni o'rgatish.	Loyiha davomida 24 ta motivatsion video intervyular olinadi.
5.	5 tashabbus loyiha ofisi NNT	Motivatsion uchrashuvlar, ochiq muloqotlar va roliklar tayyorlash	"O'zbekiston uchun 100 g'oya" loyihasi	1 805,0	Mamlakatimizda turli sohalarida faoliyat olib borayotgan faol va tashabbuskor, o'z mehnati va harakati bilan hayotda katta yutuqlarga erishgan yoshlar jamoasini shakllantirish	Jamiyatning barcha sohalarida yoshlar masalalari bo'yicha 2 ming nafardan ortiq lider yoshlar bazasi shakllantiriladi. Ular orqali 9,5 ming nafarga yaqin yoshlar qamrab olinadi.
6.	O'zbekiston yosh fermerlari Kengashi NNT	Motivatsion va "kouching" video materiallar	"Fermerlarning 12 yoquti" loyihasi	659,0	Yoshlarning agrar sohaga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish - sohadagi nomaqbul qo'llanadigan "qora" so'zlarni ijobiy tomonga o'zgartirish hamda sohaning zamonaviy imidjini shakllantirish.	O'zbekiston Respublikasi agrar sohaning siyosatini ishlab chiqishda yoshlarning ishtirok etishini yanada kengaytirish.



**Davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish maqsadida Yoshlar ishlari agentligiga yuborilgan, biroq tanlov talablari asosida loyihalar shakllantirilmaganligi uchun qayta ko'rib chiqish yuzasidan qaytarilgan va rad etish sabablari to'g'risida**

**MA'LUMOT**

T/r	Tashkilot nomi	Loyiha nomi	So'ralayotgan mablag' miqdori (mln. so'm)	Loyihaning maqsadi	Loyihadan kutilayotgan natija	Loyihani takomillashtirish yuzasidan izoh
1.	"Respublika yosh ijodkorlar kengashi" NNT	"Bolalar uchun IT qo'llanma" loyihasi	153,7	Zamonaviy texnologiyalarning dastlabki tushunchalarini sodda va tushunarli usulda o'rgatish.	Axborot texnologiyalarni bolalarga o'rgatuvchi qo'llanmani <b>100 000 ming</b> nusxada chop etish	Loyihaning qayta ko'rib chiqilishi hamda Jamoatchilik Kengashining navbatdagi yig'ilishiga kiritilishi tavsiya etildi.
2.	Respublika yosh olimlar kengashi NNT	"Yosh olim" ilmiy onlayn jurnali	400,0	Respublika yosh olimlar Kengashining nizomida ilmiy jurnal ochish masalasi qo'yilgan. Bu orqali Respublika olimlarini bir maqsad atroda to'plash va ilmiy faoliyatlariga ko'maklashish.	Ilmiy onlayn jurnal 1 yilda 4 marotaba chop etiladi. Ish jaroyonida maqolalar ko'p kelsa ham 2 oyda bir marotaba chiqishi ham mumkin.	Loyihaning qayta ko'rib chiqilishi hamda Jamoatchilik Kengashining navbatdagi yig'ilishiga kiritilishi tavsiya etildi.
3.		"Ilm-fan javohirlari" loyihasi	400,0	Mamlakatimiz 2030-yilgacha ilm-fan rivojlantirish konsepsiyasi maqsadlarini amaga oshirish. Videorolik orqali boshqa mamlakatlarga ham olimlarimiz hayotini namoyon etish.	Loyiha yakunida <b>30 ta</b> turli xil fan sohalari bo'yicha olimlar, akademiklar, kashfiyotchilarimiz va yosh olimlar haqida hujjatli film tayyorlanadi. <b>3 ta</b> tilda taqdim etiladi.	Loyihaning qayta ko'rib chiqilishi hamda Jamoatchilik Kengashining navbatdagi yig'ilishiga kiritilishi tavsiya etildi.
4.		"Loyihadan biznesgacha" yoshlar uchun biznes saboqlari loyihasi	300,0	Yoshlarga tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi qo'llanma yaratish.	Respublikamizdagi tadbirkorlik va biznesga qiziquvchi yoshlar uchun motivatsion qo'llanma yaratiladi.	Loyihaning qayta ko'rib chiqilishi hamda Jamoatchilik Kengashining navbatdagi yig'ilishiga kiritilishi tavsiya etildi.

5.	O'zbekiston yosh fermerlari Kengashi NNT	"Yoshlar – qishloq xo'jaligining yorqin kelajagi" loyihasi	300,0	Yoshlarning agrar sohaga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish – sohadagi nomaqbul qo'llanadigan "qora" so'zlarni ijobiy tomonga o'zgartirish hamda sohaning zamonaviy imidjini shakllantirish.	O'zbekiston Respublikasi agrar sohaning siyosatini ishlab chiqishda yoshlarning ishtirok etishini yanada kengaytirish.	"Yosh fermerlar kengashi" NNT tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun kelib tushgan har ikkala loyihalari amalga oshirish va loyihalar yakuni bo'yicha erishiladigan natijalari nuqtai nazaridan bir-birini takrorlaganligi hamda talabgorning ushbu loyihasini amalga oshirish uchun shaxsiy va boshqa hamkorlar ulushi jalb qilinmaganligini inobatga olib, ushbu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati cheklangan deb topildi.
6.	"Imkoniyat" NNT (Navoiy)	"Yosh tadbirkorlar" loyihasi	275,7	Ota-onalarning moddiy yordamisiz, katta aloqalarsiz, yoshlarni o'z biznesini boshlashiga turtki beradigan, tadbirkorlarning misollarini yoritib berish.	Loyiha <b>20 daqiqalik 12 ta</b> filmdan iborat bo'lib, unda yoshlar o'zlarining hikoyalarini - qanday qilib noldan boshlaganliklari, haqida batafsil tushintirib berishadi.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-sonli qaroriga asosan va tanlov shartlariga muvofiq hujjatlar to'liq taqdim etilmagan.
7.		"UzNet tarixi" loyihasi	286,7	IT sohasidagi eng yirik loyihalarni ko'rsatish orqali yoshlarga motivatsiya berish	Loyiha <b>30-50 daqiqalik 6 ta</b> filmdan iborat bo'lib, internet sohasida faoliyat yuritadigan insonlarni aholiga kengroq yoritishga qartilgan video roliklar tayyorlanadi.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-sonli qaroriga asosan va tanlov shartlariga muvofiq hujjatlar to'liq taqdim etilmagan.
8.	"Samarali ta'lim" xususiy korxonasi	O'quvchi va o'qituvchi yoshlar uchun intensiv vizual qo'llanma yaratish loyihasi	3 303,5	- Respublikamizda o'qituvchi va o'quvchi yoshlarga fanlarni o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish. - vizual xotirani jonlantirish va yoshlar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanib yoshlarga sodda va tushunarli usullarda fanlarni o'rgatish; - Yoshlarni mustaqil fikrlash salohiyatini oshirib hayotga o'z o'rnilarini topishga ko'maklashish	- Fanlarni o'qitishning samarali usul va vositalaridan foydalanish, o'quvchilarning kitob bilan, ayniqsa, elektron-vizual audio kitoblar bilan muloqotini mustahkamlash; - ta'lim sifatini mustahkamlash va o'qituvchilar uchun innovatsion qo'llanma ishlab chiqish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-sonli qaroriga asosan "Samarali ta'lim" xususiy korxonasi tashkiliy-huquqiy shaklidan kelib chiqib, tanlovda ishtirok etish imkoniyati mavjud emas.

9.	“Ayol va shodlik” NNT (Surxondaryo)	“Kasblar olami” loyihasi	386,9	Yoshlarning qiziqish va intilishlari asosida kasb-hunar o‘rganishga jalb qilish, daromad topishga, biznesga yo‘naltirish.	O‘quv kurslarda o‘qish muddati <b>2-oy</b> har bir kursda <b>15</b> nafar yoshlar ishtirok etadi. <b>Jami: 210 nafar</b> yoshlar.	Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ushbu loyihaning maqsad va vazifalari tanlov mavzusiga hamda tanlov yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaganligi, shuningdek loyihani amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining, shu jumladan tarmoq va hududiy dasturlarning ijrosiga ko‘maklashishni nazarda tutmasligini inobatga olib, mazkur loyihani davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topilmadi.
10.	“Yoshlar ovozi gazetasi Tahririyati” MCHJ	“Yangi O‘zbekistonda hamma tadbirkor bo‘lishi lozim!” loyihasi	501,1	Loyihaning maqsadi yoshlar ongida zamonaviy biznes ko‘nikmalari va psixologiyasini shakllantirish, madaniyati va bilimlarini kengaytirishdan iboratdir.	Loyiha doirasida <b>1500 nusxa</b> gazeta chop etilib, yoshlar auditoriyasiga keng kirib borish maqsadida yurtimizdagi davlat oliy ta‘lim muassasalarining kutubxonalariga bepul yetkazib beriladi.	Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ushbu loyihaning maqsad va vazifalari tanlov mavzusiga hamda tanlov yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaganligi, shuningdek loyihani amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining, shu jumladan tarmoq va hududiy dasturlarning ijrosiga ko‘maklashishni nazarda tutmasligini inobatga olib, mazkur loyihani davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topilmadi.
11.	“Yosh kuch” jurnali	“Yoshlar mamlakati – O‘zbekiston!” maxsus soni loyihasi	567,5	Ushbu loyiha jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan jarayonlarga befarq va tushkunlik ruhida yashayotgan ishsiz yoshlarni uyg‘otish va ularni faol ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilishga qaratilgan.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan uchrashuvida (yoshlar forumi) aniq belgilab berilgan topshiriqlaridan kelib chiqib 3 ta maxsus sonini chop etish. Har bitta sonidan 500 ming tadan. <b>Jami 15 000 ta.</b>	Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ushbu loyihaning maqsad va vazifalari tanlov mavzusiga hamda tanlov yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaganligi, shuningdek loyihani amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining, shu jumladan



						tarmoq va hududiy dasturlarning ijrosiga ko'maklashishni nazarda tutmasligini inobatga olib, mazkur loyihani davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida moliyalashtirish maqsadga muvofiq deb topilmadi.
--	--	--	--	--	--	--

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi  
2021-yil 1-martdagi yig‘ilishi foto qaydnomasi**









